

AYOLLAR SPORT USLUBIDAGI KIYIMINI TIKISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

R.M.Isayeva

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Qaldibayev Rashid Turdibayevich

Janubiy Qozog'iston Universiteti t.f.d.dosent

Annotatsiya: *Ustki va yengil kiyimlarimiz qanday gazlamadan tikilishi, qanday fasonda bo'lishidan qat'iy nazar, bunda gazlamaning tolaviy tarkibi, to'qilishi, zamonaviy jihoz va uskunalaridan foydalanib, ayollar sport uslubidagi kiyimini tikish texnologiyasini maxsus va universal turdagi tikuv mashinalarini to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Maxsus va universal mashina, to'g'ri siluyet, dizayn, libos, andoza, pastki qirqim.*

Mamlakatimizning rivojlanishi, jahonning yetakchi davlatlari bilan raqobatlashishi uchun har sohada jadallik bilan o'zgarishlar kuzatilib borilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ishlab chiqarishni kengaytirish, yengil sanoatning barpo bo'lishida tinmay mehnat qilayotgan mutaxassislariga davlatimiz tomonidan keng imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish lozim. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.


Hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab - quvvatlash bo'yicha aniq chora - tadbirlarni amalga oshirishdir. Jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini kengaytirish katta o'rin tutadi.

Zamonaviy sport uslubidagi kiyim sodda, katta og'irlikka ega bo'lmagan, yuvish, va dazmollash uchun qulay bo'lishi kerak. Shuningdek, ayollar sport uslubidagi kiyimni sifatli gazlamalardan tikish va bezak berish tavsiya etiladi. Ayollar sport uslubidagi kiyimining bichimi harakat qilishi, nafas olishi va qon aylanishi uchun qulay bo'lib, yetarli issiqliqni saqlab turishi lozim.

Gazlamaning tola tarkibi, kiyimni bichish, loyihalash, va tikish jarayonida eng katta ahamiyatga ega. Kiyimdagi dog'larni ketkazish, kimyoviy tozalash vaqtida ham gazlamaning tola tarkibiga e'tibor berishimiz kerak. Gazlamalarni tarkibiga kiradigan tolalarning xiliga qarab barcha gazlamalar, bir tarkibli va aralash turlarga bo'linadi.

Ayollar sport uslubidagi kiyimi gazlamalari asosan qayta tarash usulida yigirilgan pishitilgan kalava ipdan polotno, sarja va mayda gulli o'rilishlarda to'qiladi. Nisbiy zichligi katta, suv yuqtirmaydigan eritma shimdirilgan, 1 kv. m gazlamaning vazni 185-300 g. Tarkibida 33 foiz poliester tolalar va 67 foiz paxta bo'lgan diagonal yoki krep o'rilishda to'qiladigan yangi gazlamalar ishlab chiqarilmoqda (1-rasm).

Tanda va arqog'iga ikki qavatli 15,3 tekсли pishitilgan kalava ip ishlatiladi, eni 80 sm, 1 kv. m gazlamaning vazni 248-282 g. Tikish paytida o'yiqlar hosil bo'ladi.



Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi

№	Material nomi	Artikuli	Eni, sm	Tolalar tarkibi, %
1	2	3	4	5
1.	«Poliester»	310123	152	40% paxta 60% ter
2.	«Poliester»	310123	152	60% paxta 40% ter
3.	«Poliester»	310123	152	33% paxta 67% ter

Sport uslubidagi yoshlar liboslari to'plamini dizayn loyihasini ishlab chiqishda avvalambor ergonomik talabiga javob berish kerak. Chunki sport uslubidagi kiyimlarda harakat ko'p bo'ladi. Yani egilganda, yurganda, o'tirganda kiyim inson tanasiga "qulay" va "komfort" bo'lishi kerak. Bu esa kiyim bichimiga, siluetiga, matosiga bog'liq bo'ladi. Gigienik talablari bu kiyimning havo almashinuvi darajasini, ya'ni o'z navbatida kiyim paketining havo o'tkazuvchanligiga, bug' o'tkazuvchanligiga hamda kiyimining ratsional konstruktiv yechimiga, eng asosiysi matosiga bog'liqligini bildiradi, bu esa sport uslubidagi kiyim uchun asosiy talab hisoblanadi.

Estetik talablar kiyimini shaxsiy predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatni bajara olmaydi. Sport uslubidagi kiyim albatta zamonaviy modaga mosligi: kiyimning estetik ko'rinishi, barcha konstruktiv elementlarning ya'ni detallar, simmetrik joylanishi, biriktiruvchi va bezatuvchi choklarning rovonligi buyumning rangiga mosligi o'ziga xos yechimi, ifodaligiga elementlariga majmuan bog'liq.

Ushbu uslubining funksional ko'rsatkichlar kiyimining asosiy vazifasiga, iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Bu ko'rsatkichda shaxsning yoshi va psixologik xususiyatlari ham ahamiyatga olinadi. Sport uslubida eksplatitsion ko'rsatkich alohida o'rin tutadi. Chunki kiyimning ishonchliligi ko'rsatkichi detallarining shakl saqlovchiligi, chidamliligi, choklarining pishiqligi bilan xarakterlanadi. Kiyim sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichining konstruktsiyasining texnik jihati ham muhim ahamiyatga ega.

Sport uslubidagi trikotaj polotnosidan yoshlar va ayollar uchun mo'ljallangan komplekt. Komplekt ikki buyumdan iborat: sport kiyim uslubidagi va shim, yopishgan siluetda. Sport uslubidagi kiyim uzun yengli, kopyushonli, uzunligi belgacha manjetli. Old bo'lak taqilmasi molniya tasmali va listochkali qirqma cho'ntakdan iborat. Bezak sifatida kopyushoning astari boshqa rangdagi trikotaj polotnodan foydalanilgan.

Shim uzunligi to'piqqacha bo'lib manjet bilan ishlov berilgan old yon bo'lagida qiyalama cho'ntak bilan ishlov berilgan

Ayollar sport uslubidagi kiyimi uchun mo'ljallanishiga ko'ra gazlama, shakl va bezak tanlanadi.



Ayollar sport uslubidagi kiyimi turli shaklli bo'lib belda yoki beldan sal pastroqqacha uzunlikda, turli shakldagi yoqali, yoqasiz, kapyushonli, yaxlit bichilgan, old taqilmasi molniyasi, tugmacha qadaladigan, yashirin taqilmali bo'lishi mumkin. Ayollar sport uslubidagi kiyimi turli shakldagi cho'ntaklar, applikatsiyalar, shnur-tasmalar, temir yoki yelim taqilmalar bilan bezatiladi. Tavsiya etilgan Ayollar sport uslubidagi kiyimi har xil uzunlikda, reglan yengli, oldi molniya taqilmali, biriktirma yoqali va yeng uchi rezinaga yig'ilgan biriktirma manjetli bo'ladi. O'ng old bo'lagida qiya molniya taqilmali qirqma cho'ntak, old bo'lagida Ayollar sport uslubidagi kiyim bel darajasida ip lenta bilan bog'lanadi; Yeng va yon qirqimlari kapyushon bezak choki bilan tikilgan bo'ladi.



Bugungi kunda barcha ma'lum bo'lgan bichish tizimlari kiyimning eng muvaffaqiyatli konstruktsiya-chizmalarini takror tiklash uchun mo'ljallangan o'zgacha shaklli yozuvlardan iborat. Bu konstruktsiyalarning birlamchi andazalari oldin ishlab chiqilgan tipik konstruktsiyalar va eski modellarning chizmalarini qo'llagan holda, tajriba yo'li bilan olinadi. Kiyimning tajribiy nusxalarini tayyorlash jarayonida andazalar to'g'riligi aniqlanganidan so'ng, barcha andazalar to'g'ri burchakli romga (to'g'ri burchakli koordinatlar tizimi) joylashtirilib alohida konstruktiv nuqtalarning va kontur chiziqning joylanishini aniqlovchi hisoblash formulalari tuziladi.

Yangi kiyim modellarini yaratish ijodiy jarayoni doim amaliyotda nusxa (namuna) tayyorlash bilan tugaydi, chunki ko'pchilik bo'lg'usi detallar razmerlari (hisoblash formulalari tarkibidagi o'zgaruvchi miqdorlar) modeler-rassom va konstruktorning model ustida ishlash jarayonida aniqlanadi.

Sanoatda kiyimni konstruktsiyalashning taxminiy usullarini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Tikuvchilik Sanoati Markaziy Ilmiy tekshirish institutida (SNIISHP) sobiq Sovet Ittifoqining bir qator Modellar uyi ishlarini umumlashtirish natijasida kostyumni konstruktsiyalashning tipik usuli yaratildi.

Usulning mohiyati va chizmalarni qurish texnikasi bo'yicha bu tipik usul avvalgi bichish tizimlaridan tubdan ajralib turmaydi. Bu usul bo'yicha ham chizmalarni qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida gavda o'lchamlari va hisoblash yo'li bilan topilgan qo'shimcha haqlar xizmat qiladi.

Xulosa

Tikuvchilik sanoatida barcha turdagi modellarni ishlab chiqish jarayonida turli aperiatsiyalarni bajaruvchi asbob uskuna va tikuv mashinalaridan operatsiya turlariga qarab foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir model uchun pardoqlash jarayonlari, namlab issiqlik ishlov berish, tugma qadash va izmalarni ochish ustki va yengil kiyimlarda ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarida gazlamaning qalin va yupqaligiga qarab bajariladi. Bir so'z bilan aytganda, barcha turdagi kiyimlarni ishlab chiqarish jarayonlari o'ziga xoslikni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

G.K.Kulijonova, S.S.Musaev "Yengil sanoat maxsulotlari texnologiyasi". Toshkent O'qituvchi nashriyoti 2004 y.

M.Sh.Jabborova "Tikuvchilik texnologiyasi". Toshkent O'qituvchi nashriyoti 1994

S.Sh.Toshpo'latov, X.X.Komilova "Tikuv buyumlarini loyihalsh". Toshkent Voris-nashriyoti 2007 y.

B.Ziyomuhamadov "Pedagogik mahorat asoslari". Toshkent Tik top nashriyoti 2009

Sharipova, N., Sherqulova, N., Isayeva, R., Islamova, R., & Abdukadirova, M. (2024). RESEARCH OF THE PROCESS OF ENRICHMENT OF NATURAL SILK FIBER AND NITROINE FIBERS MATERIALS. *Modern Science and Research*, 3(2).

Yangiboyev, I., Kasimov, A., Shodiyev, D., & Panjiyev, O. (2024). IMPACT OF FIBER WASTE ON THE ECOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(2).

Sharipova, N., Qaldibayev, R., & Jumabayeva, N. (2024). GENERAL INFORMATION ABOUT FIBERS USED IN THE PRODUCTION OF GARMENTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Modern Science and Research*, 3(1), 1212-1216.

Шеркулова, Н. Р., Давлатов, Р. М., Негматов, С. С., & Негматова, М. Н. (2021). Улучшения характеристических свойств на натуральном шелке в процессе переработки с использованием модификатора. *Universum: технические науки*, (10-4 (91)), 73-78.

Yangiboyev, I., & Qaldibayev, R. (2024). 5LP LINTER SAW CYLINDER. *Modern Science and Research*, 3(1), 1217-1221.

Кабилова, Д. С., Шеркулова, Н. Р., & Базарбаева, Г. Г. (2020). Реализация продукции-показатель оптимального планирования производства. In *Исследования молодых ученых* (pp. 15-17).

Шарипова, Н., Шеркулова, Н., Исаева, Р., Исламова, Р., & Абдукадилова, М. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБОГАЩЕНИЯ МАТЕРИАЛОВ НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКОВОГО ВОЛОКНА И НИТРОННЫХ ВОЛОКОН.

Sharipova, N. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING DESIGN SKILLS IN STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(12), 578-583.

Madjidova S. G. et al. Determination of Consumer Characteristics of Women's Clothing Made of Natural Silk // *Journal of Advanced Zoology*. – 2023. – Т. 44.

Панжиев, О. Э., Исаева, Р. М., & Исмаилова, Л. (2023). ПОВЕРХНОСТНАЯ МОДИФИКАЦИЯ ВОЛОКНА КАК АСПЕКТ КОМФОРТА СВОЙСТВА ТКАНИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(3), 43-48.

Islamova, R. (2023). METHODS, STRUCTURE AND CONTENT OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF CREATIVE ACTIVITY DEVELOPMENT IN STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(12), 187-192.

Sharipova, N. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING DESIGN SKILLS IN STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(12), 578-583.

Mavlonovna, S. N. (2023). TALABALARDA DIZAYNERLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(12), 380-386.

Irmatova, M., Nabieva, I., & Sharipova, N. (2023). A study of the process of printing patterns on mixed fabric. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 03059). EDP Sciences.

Шодиев, Д. Т., Давлатов, Р. М., & Бердикул, И. (2022). ВОДОРАСТВОРИМЫЕ КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ ПОЛИМЕРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ДЛЯ МОДИФИКАЦИИ ХЛОПКОВЫХ ВОЛОКОН. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 133-138.